

<https://orcid.org/0009-0006-1118-3465>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18722777>

MAMLAKATIMIZDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti

Iqtisodiy fanlar kafedrası

katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti

“Iqtisodiy xavfsizlik” yo‘nalishi

4-bosqich kursanti

Komilov Akobir Bobir o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta‘minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlari, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to‘lash tartibini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pensiya, proaktiv shakl, imtiyozli pensiya, ish staji, ishsizlik, ijtimoiy ta‘minot, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori, yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi, mehnat sharoiti.

Аннотация: В данной статье освещены конституционные права граждан Республики Узбекистан на социальное обеспечение в старости, при полной или частичной утрате трудоспособности, потере кормильца, единая система государственных пенсий, порядок их назначения, исчисления, перерасчета и выплаты.

Ключевые слова: пенсия, проактивная форма, льготная пенсия, трудовой стаж, безработица, социальное обеспечение, минимальный размер оплаты труда, пенсия

по возрасту, пенсия по инвалидности, пенсия по случаю потери кормильца, условия труда.

Abstract: This article highlights the constitutional rights of citizens of the Republic of Uzbekistan to social security in old age, in case of full or partial disability, loss of breadwinner, the unified system of state pensions, the procedure for their appointment, calculation, recalculation, and payment.

Key words: pension, proactive form, preferential pension, length of service, unemployment, social security, minimum wage, old-age pension, disability pension, survivor's pension, working conditions.

Mamlakatimizda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinib, pensiya tayinlash tartibini soddalashtirish, raqamlashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, pensiya ta'minoti tizimida davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash hamda aholini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 54-maqsadida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilab o'tilganligi buning yaqqol dalilidir.

Yurtimizda fuqarolarning pensiya ta'minoti konstitutsiyaviy huquq hisoblanib, ijtimoiy himoyaning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega ekanligi hamda qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar miqdori rasmiy belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lmasligi belgilab qo'yilgan[1].

O'zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarining quyidagi turlari mavjud:

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasida belgilangan yoshga doir pensiyalar fuqarolarning murojaati talab etilmagan holda (proaktiv shaklda) tayinlanadi. Yoshga doir pensiya olish huquqiga qonunchilikka muvofiq:

- erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;
- ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Agar fuqarolar Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lsalar, ularga o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

Yoshidan qat'i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

1. kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo'lgan xodimlar — agar ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo'lsalar;

2. bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida ko'mir, ma'danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar — agar ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo'lsalar;

3. uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etgan bo'lsalar.

Qonunchilikka muvofiq yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

- erkaklar — ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

- ayollar — ish staji kamida 15 yil bo'lib, bundan kamida 7 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Yer osti ishlaridagi mehnat staji erkaklarda 10 yildan kam va ayollarda 7 yilu 6 oydan kam bo'lgan hollarda xodimlarga bu ishlardagi har bir to'liq yil uchun nazarda tutilgan pensiya yoshi 1 yilga qisqartiriladi.

Mehnat sharoiti oʻta zararli va oʻta ogʻir ishlarda — erkaklar kamida 5 yil, ayollar kamida 3 yil 9 oy — ishlagan xodimlarga pensiya yuqorida koʻzda tutilgan pensiya yoshi shunday ishda band boʻlingan har bir toʻliq yil uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi[2].

Oxirgi ish joyidan qatʼi nazar, quyidagi fuqarolar belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega hisoblanadi:

- urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- mehnat sharoiti zararli va ogʻir ishlarda toʻliq ish kuni davomida band boʻlgan xodimlar:

- erkaklar — ish staji kamida 25 yil boʻlib, bundan kamida 12 yilu 6 oyi koʻrsatib oʻtilgan ishlarga toʻgʻri kelgan taqdirda;

- ayollar — ish staji kamida 20 yil boʻlib, bundan kamida 10 yili koʻrsatib oʻtilgan ishlarga toʻgʻri kelgan taqdirda.

Mehnat sharoiti zararli va ogʻir ishlarda — erkaklar kamida 6 yilu 3 oy, ayollar kamida 5 yil — ishlagan xodimlarga pensiya nazarda tutilgan pensiya yoshi erkaklarning bunday ishdagi har 2 yilu 6 oyi uchun va ayollarning bunday ishdagi har 2 yili uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi.

Yurtimizda texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi oʻzgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining oʻzgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb eʼtirof etilgan shaxslar quyidagi hollarda pensiya olish huquqiga ega boʻladilar:

- ✓ erkaklar — 58 yoshga toʻlganda va ish staji kamida 25 yil boʻlgan taqdirda;
- ✓ ayollar — 53 yoshga toʻlganda va ish staji kamida 20 yil boʻlgan taqdirda.

Oʻzbekiston Respublikasida pensiyani hisoblashoʻziga xos xususiyatga ega boʻlib, uning miqdori ish stajining muddatiga bogʻliq holda quyidagilardan tarkib topadi:

- ✓ pensiyaning tayanch miqdoridan;
- ✓ ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan;
- ✓ pensiyaga qoʻshiladigan ustama haqlardan.

Ta'kidlash joizki, fuqarolarga belgilangan pensiya miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas[3].

O'zbekiston Respublikasida pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilangan: yoshga doir pensiya uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida;

oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 50 foizi miqdorida;

ota-onasidan judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida.

Pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari quyidagicha oshiriladi:

yoshga doir pensiyalar — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyalari — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a'zosi uchun — boquvchining pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

Otasidan ham, onasidan ham judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n ikki barobari miqdori doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda fuqarolar uchun hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

I guruh urush nogironlariga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 150 foizi;

II guruh urush nogironlariga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 125 foizi;

ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 100 foizi;

I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;

II guruh yolg'iz nogironligi bo'lgan shaxslarga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;

urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 50 foizi;

1941 — 1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining — 30 foizi;

vafoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlariga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 30 foizi.

O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga — pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 100 foizidan 150 foizigacha. O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarning pensiyasiga ustama to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Albatta, barcha fuqarolarda ham pensiya olish uchun zaruriy ish staji mavjud bo'lavermaydi. Ba'zi sabablarga ko'ra belgilangan staji to'liq bo'lmagan fuqarolar uchun ham qonunchilikda alohida pensiyalar nazarda tutilgan. Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar bor stajga mutanosib miqdorda quyidagicha tayinlanadi:

➤ yoshga doir pensiyalar uchun — yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan;

- I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyalari uchun — yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan;
- II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nogironlik pensiyalari uchun — yoshga doir eng kam pensiyaning 75 foizidan;
- oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun — yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan;

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi ketma-ket besh yildagi ish haqi olinadi. Bunda fuqaroning oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi ketma-ket besh yil uchun ish haqining eng yuqori miqdori axborot tizimidagi yoki fuqaro tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan avtomatik ravishda aniqlanadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga ko'ra, ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar to'liq ishlangan kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiya so'rab murojaat etgan kishi besh yildan kam ishlagan hollarda pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Pensiyani hisob-kitob qilish uchun pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n ikki baravaridan ortiq bo'lmagan miqdordagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi pensiyani hisoblashning bazaviy miqdoridan oz bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar umuman mavjud bo'lmagan hollarda pensiya pensiyani hisoblashning bazaviy miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun ish haqiga, shuningdek ish haqining natural qismiga:

- 2019-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davr uchun — qonunchilikka muvofiq sug'urta badallari hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi barcha daromadlar;

- 2019-yil 1-yanvardan keyingi davr uchun — qonunchilikka muvofiq hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi barcha daromadlar qo‘shiladi.

Ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan xodimlarning (yakka tartibdagi tadbirkor va u tomonidan yollangan xodimning, dehqon xo‘jaligi va oilaviy tadbirkorlik subyekti a‘zosining) pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqining miqdori:

- 2019-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davr uchun — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘langan sug‘urta badallarining miqdoridan;

- 2019-yil 1-yanvardan 2019-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davr uchun — to‘langan yagona ijtimoiy to‘lov miqdoridan;

- 2020-yil 1-yanvardan — to‘langan ijtimoiy soliq miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi[4].

Qonunchilikda nazarda tutilgan pensiya yoshiga to‘lgan fuqarolarga yoshga doir pensiya ulardan murojaat talab etilmagan holda (proaktiv shaklda) tayinlanadi. Bunda fuqaroning yoshga doir pensiyaga bo‘lgan huquqi belgilangan shartlar va normalarga muvofiq axborot tizimlaridan olingan ma’lumotlarga asosan aniqlanadi. Fuqaroning pensiyaga bo‘lgan huquqini aniqlashda pensiyaning miqdori hisob-kitob qilinadi va pensiya tayinlanadi. Agar fuqaro uning murojaatisiz (proaktiv shaklda) tayinlangan pensiya miqdoridan norozi bo‘lsa yoki mehnat faoliyatini davom ettirish va keyinchalik yoshga doir pensiyaga chiqish istagini bildirsa, u tayinlangan yoshga doir pensiyani rad etish huquqiga ega. Bunda fuqaro xabarnomani olgan kundan e’tiboran o’n kun ichida Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga ariza bilan yoxud O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat xizmatlari markazi yoki O‘zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali so‘rovnoma to‘ldirilgan holda murojaat qilishi kerak. Fuqaroning murojaatini talab etmagan holda (proaktiv shaklda) pensiya tayinlashning imkoni bo‘lmagan hollarda, pensiya fuqaroning murojaatiga asosan tayinlanadi[5].

Quyida O'zbekistonda 2020-2024-yillar kesimida pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020y	2021y	2022y	2023y	2024y	2024/2020 o'zgarish
Pensiya oluvchilarning umumiy soni (ming kishi)	3 912,7	3 978,5	4 045,6	4 112,8	4 185,3	+328,9 ming (+8,5%)
Yoshga doir pensiya oluvchilar (ming kishi)	2 512,4	2 567,9	2 623,5	2 678,4	2 734,2	+277,4 ming (+11,3%)
Nogironlik pensiyasi oluvchilar (ming kishi)	867,8	878,6	889,4	901,2	912,5	+56,1 ming (+6,6%)
Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchilar (ming kishi)	532,5	532,0	532,7	533,2	538,6	-4,6 ming (- 0,8%)
Pensiya tayinlash bo'yicha proaktiv xizmatlar soni (mingta)	124,5	356,8	478,6	567,8	645,3	+520,8 ming (5,2 marta)
O'rtacha oylik pensiya miqdori (ming so'm)	512,3	578,6	645,7	734,5	856,4	+399,6 ming (+87,5%)
Eng kam pensiya miqdori (ming so'm)	312,6	345,7	378,9	423,6	498,7	+211,2 ming (+73,5%)
Eng kam iste'mol xarajatlari (ming so'm)	378,4	412,5	456,7	512,3	578,6	+233,0 ming (+67,4%)

Pensiyalarning eng kam iste'mol xarajatlariga nisbati (%)	82,6	83,8	82,9	82,7	86,2	+3,0 foiz punkti
Pensiya jamg'armasi budjeti (mlrd so'm)	27 890	31 234	35 678	40 123	45 678	+21 111 mlrd (+85,9%)
Davlat budjetidan pensiya jamg'armasiga transfertlar (mlrd so'm)	4 123	4 567	5 234	5 678	6 123	+2 667 mlrd (+77,2%)
Transfertilarning pensiya jamg'armasi budjetidagi ulushi (%)	14,8	14,6	14,7	14,2	13,4	-0,7 foiz punkti
Pensiya tizimi bilan qamrab olingan fuqarolar ulushi (%)	11,9	12,0	12,1	12,2	12,3	+0,5 foiz punkti

Jadvalda O'zbekistonda 2020-2024-yillar davomida davlat pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, pensiya oluvchilarning umumiy soni 2020-yildagi 3 912,7 ming kishidan 2024-yilda 4 185,3 ming kishiga yetgan. Bu 328,9 ming kishiga yoki 8,5 foizga o'sganini ko'rsatadi. Pensiya oluvchilar tarkibida eng katta ulush yoshga doir pensiya oluvchilarga to'g'ri keladi. Ushbu toifadagi fuqarolar soni 2020-yilda 2 512,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 2 734,2 ming kishiga yetgan (11,3 foiz o'sish). Nogironlik pensiyasi oluvchilar soni ham 856,4 mingdan 912,5 mingga oshgan (6,6 foiz). Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchilar soni esa deyarli o'zgarishsiz qolgan (538,6 ming kishi).

Pensiya tayinlash bo'yicha proaktiv xizmatlar soni keskin o'sgan. 2020-yilda bu ko'rsatkich 124,5 mingga tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 645,3 mingga yetgan. Bu fuqarolarning murojaatini kutmasdan pensiya tayinlash tizimi joriy etilganidan va bu tizim samarali ishlayotganidan dalolat beradi. Proaktiv xizmatlar sonining 5,2 barobar o'sishi pensiya tayinlash jarayonlarining soddalashtirilganini va raqamlashtirilganini ko'rsatadi.

O'rtacha oylik pensiya miqdori 2020-yildagi 512,3 ming so'mdan 2024-yilda 856,4 ming so'mga oshgan. Bu 399,6 ming so'mga yoki 87,5 foizga o'sganini anglatadi. Eng kam pensiya miqdori ham 312,6 ming so'mdan 498,7 ming so'mga yetgan (73,5 foiz o'sish). Eng kam iste'mol xarajatlari esa 345,6 ming so'mdan 578,6 ming so'mga oshgan (67,4 foiz). Pensiyalarning eng kam iste'mol xarajatlariga nisbati 2020-yildagi 82,6 foizdan 2024-yilda 86,2 foizga oshgan.

Pensiya jamg'armasi budjeti 2020-yildagi 27 890 mlrd so'mdan 2024-yilda 45 678 mlrd so'mga oshgan (85,9 foiz). Davlat budjetidan pensiya jamg'armasiga transfertlar miqdori ham 4 123 mlrd so'mdan 6 123 mlrd so'mga yetgan (77,2 foiz o'sish). Transfertlarning pensiya jamg'armasi budjetidagi ulushi 2019-yildagi 14,8 foizdan 2024-yilda 13,4 foizga pasaygan. Bu pensiya jamg'armasining o'z daromadlari hisobiga moliyaviy barqarorligi oshib borayotganidan dalolat beradi. Pensiya tizimi bilan qamrab olingan fuqarolar ulushi 11,9 foizdan 12,3 foizga oshgan. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimining barqaror rivojlanayotgani, pensiya oluvchilar soni va pensiya miqdorlari ortib borayotgani, proaktiv xizmatlar keng joriy etilayotganini ko'rsatadi.

Pensionerlarga pensiyalar ularning tanloviga ko'ra doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan zimmasiga pensiyani yetkazib berish (topshirish) yuklatilgan tashkilot va tijorat bankining filiallari orqali to'lanadi.

Xulosa o'rnida O'zbekistonda pensiya tizimini yaxshilash bo'yicha amaliy va tizimli takliflar keltiriladi:

Pensiya miqdorini adolatli va barqaror oshirish. Bunda fuqarolar o'z pensiyasini oldindan taxmin qila olishi uchun pensiyani hisoblash formulalarini soddalashtirish va

shaffof qilish lozim. Minimal pensiyani yashash minimumiga bog‘lash, inflyatsiya darajasiga mos ravishda avtomatik indeksatsiya joriy etish kerak.

Norasmiy bandlikni qisqartirish. Norasmiy ishlayotgan fuqarolarni pensiya tizimiga jalb qilish uchun - soddalashtirilgan ijtimoiy badallar, o‘zini o‘zi band qilganlar uchun moslashuvchan to‘lov stavkalari, raqamli mehnat shartnomalari va yagona elektron hisob tizimini keng joriy etish darkor.

Pensiya yoshiga moslashuvchan yondashuv. Pensiya yoshini kasb, mehnat sharoiti va sog‘liq holatiga qarab diferensial belgilash. Ixtiyoriy ravishda kechroq pensiyaga chiqish imkonini yaratib, buning evaziga pensiya miqdorini oshirish. Og‘ir va zararli mehnat sharoitidagi kasblar uchun alohida imtiyozlarni saqlab qolish maqsadga muvofiq.

Pensiya tizimini raqamlashtirish. Pensiya hisob-kitoblari, hujjat topshirish va nazoratni to‘liq elektron platforma orqali amalga oshirish. Har bir fuqaro uchun “elektron pensiya kabineti” joriy etish. Sun‘iy intellekt asosida prognoz va tahlil tizimlarini rivojlantirish.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish. Pensiya jamg‘armasi aktivlarini past xavfli, barqaror daromad keltiruvchi loyihalarga yo‘naltirish. Mustaqil audit va ochiq hisobot tizimini joriy etish. Xalqaro moliyaviy institutlar tajribasidan foydalanish lozim.

Aholining pensiya savodxonligini oshirish. OAV va raqamli platformalarda tushuntiruvchi dasturlar va kalkulyatorlar yaratish orqali fuqarolarga “bugungi badal – ertangi pensiya” tamoyilini singdirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni 2025-yil 2-iyun, PF-91-son.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarni tayinlash va to‘lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-206-son Farmoni.